

TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATIV YONDASHUVNING FALSAFIY VA PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Siddiqova Sadoqat G'afforovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

sadoqats@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyati, jumladan o'quv jarayonida integratsiyaning pedagogik jihatlari, ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvning falsafiy va psixologik jihatlari, ta'lim integratsiyasining turli xil darajalari, ta'limga integrativ yondashuv kabi masalalar yoritib berilgan.*

***Tayanch iboralar:** ta'lim, integratsiya, integrativ yondashuv, ta'lim sifati, falsafiy jihatlari, psixologik jihatlari, integratsiya darajalari, imkoniyatlar.*

***Abstract.** This article describes the activities of higher education institutions, including pedagogical aspects of integration in the educational process, philosophical and psychological aspects of the integrative approach to the educational process, various levels of educational integration, and issues such as the integrative approach to education.*

***Keywords:** education, integration, integrative approach, quality of education, philosophical aspects, psychological aspects, levels of integration, opportunities.*

Kirish.

Hozirgi zamon fanining mantiqiy-gnoseologik asoslaridan biri sanalgan integratsiya ilmiy bilimning informativlik darajasi va asosiy informatsion imkoniyatlarini o'zgartiradi. Bu bilimning bir darajasidan boshqa darajasiga, narsalar va hodisalar mazmunini yanada teranroq aks ettiruvchi bilimga o'tishi bilan bog'liq. Integrativ jarayonlar nazariy tizimlarning teranlik darajasini oshirib, nazariya va empirik ma'lumotlarning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Nazariya mazmunining yanada teranlashuvi informativlik darajasining oshishiga sabab bo'ladi, tushunchalar haqidagi axborotning integrativ jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish" va "zarur bo'lgan

mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish" kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda ta'lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va baholash muhim o'rin tutadi [1].

Ta'lim tizimini fanlar integratsiyasini ta'minlash asosida isloh qilish, bizningcha, yangi metodologiyani talab qiladi uni tashkil etish va birgalikda mantiqiy yondashuv g'oyasi ta'limni mazmunan birlashtirishga, fanlararo aloqalar asosida integratsiyaning yetakchi shakli sifatida xizmat qiladi, bu esa yangi yondashuvga asoslangan o'quv tarkibi yordamida talabalar idrokining yaxlitligini yuzaga keltiradi [2].

Materiallar va metodlar.

Integratsiya tushunchasining mohiyatini yanada aniqroq va to'liq tavsifini berish mumkin. Birinchidan, rivojlanish, ya'ni ob'ektda yangi jihatlar, xossa va sifatlar paydo bo'lishi bilan, ikkinchidan, yangida eskining rivojlangan elementlari, tomonlari va an'analarning saqlanishi bilan tavsiflanadi. Integratsiya falsafiy toifa bo'lib, o'zgarishlar rivojlanishining istalgan jarayonida, oldingi bosqichning alohida belgilari va tomonlarini rivojlanayotgan obyektning yangi bosqichidagi yangi shartlari bilan mos ravishda ko'chirish va uning yangi muhitga mos kelmaydigan, eskirgan belgilari va tomonlarini tashlab yuborish va mavjudlarini yaxlitlashtirish zaruriyatini belgilash uchun xizmat qiladi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Pedagogik jihatdan esa integratsiya:

didaktik tamoyil – o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakl va usullarini belgilab beruvchi asosiy qoida;

shart-sharoit – ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar;

harakatga keltiruvchi kuch – ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil;

ta'lim rivojlanishi va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi.

Ta'limda integratsiya ikki xil turda qo'llaniladi. Birinchidan, ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi integratsiya. Bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini qisman takrorlab, mazmun jihatidan uzviy bog'langan holda uning keyingi ta'lim turlarida davom etadi. Ikkinchidan, o'quv fanlari orasidagi integratsiya. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik lugʻatlarda koʻrsatilishicha, integratsiya taʼlim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, uzviy va tizimli joylashtirilishini, yangi mavzuni oʻzlashtirishda mavjud bilimlarga tayanishni, oʻquv materialining maʼlum darajada navbatdagi bosqichlarda qoʻllanilishini, oʻquv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligi va yaxlitligini ifodalaydi [9].

Boshqacha qilib aytganda, integratsiya kelgusidagi rivojlanishni ularsiz tasavvur qilish qiyin boʻlgan imkoniyatlar bilan taʼminlaydi, birlashtiradi, bular esa quyidagilar: yangiga oʻtilganlarning yangi sharoitlarda oʻzining hayotiyiligini yoʻqotmagan va rivojlanishga koʻmaklashishga qodir boʻlgan elementlarini kiritish; yangiga boshqa mazmunini kirita olish va uning rivojlanishini taʼminlash holatida boʻlgan alohida shakllarini kiritish.

Natijalar.

Pedagogik integratsiya oʻzining texnologik infratuzilmasiga, oʻzining asosiy texnologiyalariga ega. Pedagogik integratsiyaning belgisi boshqaruvchanlik, bir tomondan, uning ehtimoliy tabiati, boshqa tomondan uning texnologikligi bilan belgilangan.

Tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, integratsiya taʼlim turlari hamda oʻquv fanlari orasidagi aloqadorlik, taʼlim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari oʻrtasidagi bogʻliqlikni anglatadi. Bunda, birinchidan, taʼlimning navbatdagi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettirishi, mazmunan oʻzaro uzviy bogʻlangan holda keyingi taʼlim turida rivojlantirilib borilishi, shu orqali, fanlararo integratsiya amalga oshirilishi zarur. Ikkinchidan esa, taʼlims dual yondashuv asosida, yaʼni oʻquv jarayonining amaliy koʻnikmalari bilan bogʻliq qismini tegishli soha ish beruvchilari, korxonalar bazasida tashkil etish koʻzda tutiladi.

Falsafiy va ilmiy pedagogik adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, “integratsiya” koʻp qirrali tushuncha boʻlib, unda falsafiy, pedagogik, psixologik jihatlarni ajratish mumkin [3]. “Integratsiya” tushunchasini yaxlitlikda tadqiq qilishning markaziy falsafiy va uslubiy asosi boʻlib, tabiat, jamiyat va ong rivojlanishining umumiy qonunlari haqidagi fan sifatida dialektika xizmat qiladi.

Demak, integratsiya falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlarga ega.

Falsafiy jihatdan integratsiya kategoriyasi “rivojlanish” kategoriyasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, uning mohiyati “harakat” kategoriyasi bilan solishtirishda ayon boʻladi. Integratsiya rivojlanayotgan barcha hodisa, jarayonlarga taalluqli boʻlgan umumiy va muhim aloqalarni aks ettiradi hamda yangidan rivojlanishni aniqlaydi. “Integratsiya” tushunchasi koʻp darajali boʻlib, xorijiy olimlar va pedagoglar integratsiya tushunchasiga turlicha taʼriflar berishgan [8].

Taʼlimda integratsiya muammosining paydo boʻlishi tarixiga nisbatan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ushbu muammo pedagogikada insoniyatning

oldingi avlodida to'plangan ijtimoiy tajribani udumlar, an'analar, xulqning etik me'yorlari, yashash qoidalari va hokazolar orqali uzatish ehtiyoji bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi [8].

Bunday ta'lim integratsiyasi 3 xil darajada namoyon bo'ladi:

fanlar ichidagi (mazmuniy) integratsiya;

fanlar orasidagi integratsiya;

ta'lim turlari fanlari orasidagi integratsiya.

Turli darajadagi integratsiyani ta'lim jarayoniga joriy etish ta'lim mazmuniga, o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodlari va vositalariga, ta'lim shakliga ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni odatdagi dars jarayonlaridan tubdan farq qiladi, unda fan mazmuni chuqur tahlil qilinadi, mavzular aloqadorligi o'rganiladi [7].

Muhokama.

Bir qator ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalarini sarhisob qilsak, ilmiy va texnologik inqilobning barcha yutuqlari va samaralari insoniyat uchun keng darajada muhim ahamiyat kasb etdi. Ilm-fandagi burilishlarni aks ettiradigan inson psixikasida bunday sifatli o'zgarish – bu tashqi va ichki ma'lumotlarni inson tomonidan idrok etilishi va tahlildan o'tkazish qobiliyati takomillashishi bilan bog'liq.

Texnik ta'limning o'ziga xosligi texnik-texnologik masalalar va muammolarni hal qilish uchun ilm-fanning rivojlanish dinamikasi va keyingi amaliy qadamlar bilan belgilanadi, natijada ularni barcha ijtimoiy tizimlarga xos bo'lgan madaniy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa shartlar nuqtai nazaridan ma'lum bir soha uchun batafsil ko'rib chiqish mumkin. Umumta'lim maktabdan boshlab o'quvchilar o'rta ta'lim olish jarayonida turli psixologik, fiziologik ta'sirlar doirasida bo'lganligi tufayli tasodifiy, mutlaqo muhim emas deb hisoblangan jarayonlardagi qonunlar va holatlarni izlaydi. Shunga qaramay, bilish jarayoni faol rivojlanib, o'qish va o'qitish usullari takomillashadi, ya'ni jarayon davom etadi. Bu jarayon o'z navbatida umumiy harakatlar, ya'ni qonuniyatlar fonida davom etayotganligini anglatadi – bitta mazmundagi jarayon e'lon qilinadi, ikkinchisi esa amalga oshiriladi [3].

G.A.Klekovkin [5] tizimning rivojlanish jarayonini chuqur tahlil qiladi, integratsiyani jarayonning ajralmas xususiyatli qonuniyati sifatida yuzaga chiqaradi. Uning fikricha, qonun istalgan fanda obyektlardagi hodisalar va xossalarning ichki aloqasi sifatida fikrlanadi va u obyektivlik, zaruriyat, barqarorlik va takrorlanuvchanlik belgilari bilan tavsiflanadi.

Integrativlik tabiat va jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyati bo'lib hisoblanadi. Falsafada integratsiya rivojlanishning qonuniyati sifatida ko'riladi, u dialektikaning inkorni inkor qilish qonuni, miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni kabi asosiy

qonunlarni yuzaga chiqaruvchi bo'lib hisoblanadi. Miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni tomonlardan biri sifatida ta'limda integratsiyaning yuzaga chiqishini ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy tayyorgarlik sifatini rivojlantirib, mos ravishdagi oliy ta'lim muassasasiga o'tkazish zaruriyati misolida ko'rishimiz mumkin. Bunda talabalarni kasbiy tayyorlashni yaxlitlashtirish har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishni, uning kasbiy muhim sifatlarini tarbiyalashni, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish sharoitlarida yo'naltira olish mahoratini, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy tayyorgarlikning mazmuni va jarayonini erkinlashtirishni, muhandis-texnik bilim, ko'nikma va mahoratlar o'rnini oshirishni, kasbiy tayyorgarlik jarayonida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishlab chiqarish sharoitlariga tezda moslashishini ta'minlovchi unumli mehnatning yangi shakllarini joriy qilishni talab qiladi [6].

G.T.Soldatovanning fikricha, ta'lim berishning turli xil darajalari orasidagi integratsiyani amalga oshirish mexanizmida, pedagogik jarayon va uning natijalarining uzluksizligi va yaxlitligini ta'minlash zaruriyati hamda o'qitishning diskret xususiyati orasidagi ziddiyat qarama-qarshiliklarning kurashi va birligi qonunini o'rgatishdagi integratsiyaning yuzaga chiqishida misol bo'la oladi. Haqiqatdan ham, pedagogik maqsadlarda ta'limning fan tizimi texnik obyektlar va tabiiy bilimning obyektiv va ko'p tomonlama o'zaro bog'liqligi birligini bo'laklarga ajratadi [6].

Bizningcha esa, izchillik deganda, fan mavzularining mazmuni va murakkabligiga mos ravishdagi aniq ketma-ketlik tushuniladi. Izchillik orqali har bir bosqich, fan yoki mavzularning ketma-ketligi va davomiyligi ta'minlanadi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qitish jarayonidagi o'zaro integrativ aloqalar ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va qiziqtiruvchi vazifalarning yuzaga chiqarilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Olimlar ta'lim integratsiyasi haqida fikr yuritib, ta'limda integratsiya ikki xil ma'noda tushuntiriladi:

ta'lim turlari orasidagi integratsiya, bunda ta'limning keyingi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettiradi, balki qisman takrorlab, mazmun jihatdan bog'langan holda uni keyingi ta'lim turlarida davom ettirishga zamin hozirlaydi;

o'quv fanlari orasidagi integratsiya, buni odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish deyiladi.

Bizningcha, integratsiya tushunchasining nisbatini va rivojlanishning sifat va miqdoriy bosqichlaridagi inkorini tahlil qilib, rivojlanayotgan obyektning quyidagi ikkita ko'rinishini ajratib ko'rsatish mumkin:

eski asosini qisman inkor qilishda mazmun-mohiyatining uzviyligi;

eski asosini inkor qilish va bartaraf qilishda faqat ba'zi qirralar, natijalar va shakllarning integratsiyasi.

Fanlararo aloqalar muammosi ustida pedagogik jamoa ishining tashkil qilinishi

ikkita asosiy va o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

fanlararo aloqani hisobga olgan holda o‘quv jarayonini rejalashtirish;

fanlararo aloqalarni joriy qilish bo‘yicha turdosh fanlar o‘qituvchilarining hamkorlikdagi o‘quv-uslubiy ishlarini amalga oshirish.

Yuqoridagi tadqiqotlar va ilmiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta‘lim turlari, bosqichlari, fanlar va mavzulararo integratsiyani ta‘minlashdir.

Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimi bakalavriat o‘quv rejalari va fan dasturlarini muvofiqlashtirish va o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi davrga qadar fanlar integratsiyasini ta‘minlash oliy kasbiy ta‘lim nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘tkazilayotgan ilmiy–pedagogik izlanishlar obyekti hisoblanadi.

Demak, oliy ta‘lim muassasalari talabalarida ixtisoslikka oid fanlarni rivojlantirish sohaga oid kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishi, turli xil mazmundagi muammolar tahliliga tanqidiy yondashish malaka va qobiliyatlarini kamol toptirishi lozim.

Integrativ yondashuv ta‘lim mazmunida fanning mohiyati va asosiy xususiyatlarini yaxlit ko‘rib chiqish, asosiy omillarni ta‘kidlash, bir fan atrofida guruhlash, qolganlarining esa eng yuqori darajasini ochib berish, bu ob‘ektning rivojlanishi va uning o‘zaro aloqasi past darajada ichki va tashqi jihatlarning o‘zaro aloqasi, umumiy va ajralmas ob‘ektning umumiy holatdan boshqasiga o‘tishida ifodalanadi [7].

“Integrativ yondashuv” tushunchasi asosan bir qator belgilar orqali ochiladi, ya‘ni: yaxlitlik, ta‘lim ko‘p qirraliligi va ilmiyligi, texnika va texnologiyalar, metodlarni o‘rganish, ta‘lim mazmunidagi doimiylik va izchillik, jarayondagi rejali va tartibli kabilar. Ta‘limga integrativ yondashuv jarayonga bir tomonlama emas balki ko‘p rejali, har tomonlama yondashuvni anglatadi. Tashkilot shakl va mazmuni nuqtai nazaridan ta‘limning barcha bosqichlari birligi orqali, ya‘ni o‘quv maqsadlarini aniq va to‘liq belgilash, ularni tatbiq etish usullari va yakuniy natijalar samarasining tahlili bilan aniqlanadi.

Xulosa.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, integratsiya turli xil fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan tushunchalar, qonunlar orasidagi aloqani o‘rnatib berish va yaxlitlashtirish bo‘lib, o‘qitishda vujudga kelgan o‘quv fanlarining aloqadorligini o‘rnatish, tizimli yondashuvni to‘liq joriy qilish imkonini beradi. Demak, ta‘lim jarayonining ko‘p jihatli muammolarini har tomonlama ochib berish imkonini beruvchi fanlararo aloqalar tizimi va integratsiyasini ta‘minlash oliy ta‘lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiyalash bo'yicha zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu ta'lim va tarbiyaga yangicha yondashuvni ta'minlaydigan yangiliklarni joriy etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishdir.

Bizning fikrimizcha, integrativ yondashuv – ta'lim didaktik tamoyillarining har biri bilan o'zaro ta'sirdagi integratsiya (ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglilik va faollik, yaqqol ko'rinish, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, bilimdan foydalanish imkoniyati va mustahkamligi, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish) tamoyilini qo'llashni anglatadi. Integrativ yondashuv – pedagogik shart-sharoitlarni yaratgan holda integratsiyani amalga oshirishni talab etadi, ya'ni: aniq o'quv fanlari integratsiyasi zaruratini umumnazariy asoslash, fanlar integratsiyasi shakllari va optimal darajalarini aniqlash, o'quv materialini to'qnashuv nuqtalari, uning yetakchi g'oyalari, o'quv fanlari dasturlarini muvofiqlashtirguncha mos usullar va ko'rinishlardan foydalanish, talabalarning olam to'g'risidagi yaxlit bilimlarini shakllantirish maqsadidagi o'quv vositalari kabilar. Integrativ tavsif, o'qishga integrativ yondashuvni qo'llagan holda, yuqorida keltirilgan pedagogik sharoitlarni yaratadigan o'qituvchi faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq.

Shaxsning imkoniyatlaridan jamiyatning talab-ehtiyojlariga yo'naltirishda tashkil etuvchilarning predmet-mazmunli va tashkiliy-faoliyat qismlarining o'zgarishi pedagogik nazariyalar, ta'lim shakllari va usullarining yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni va ularni amaliyotga moslashtirishni nazarda tutadi. An'anaviy ta'lim tizimini isloh qilish, yangilash va o'zgartirish bu shakllar, usullar, mazmunni yangilash yo'lidagi boshlang'ich bosqich, bir so'z bilan aytganda, bilimli shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun yangi paradigmani shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б.39.

2. Абдураимов Ш.С. Касб таълими ўқитуувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро интеграциянинг педагогик имкониятларини такомиллаштириш // Дисс. (PhD). – Тошкент, 2017.

3. Гребенчиков А.Г. Педагогические условия развития художественно - творческих способностей учащихся в системе непрерывного образования // Автореферат. – Елец, 2005. – 24 с.– 158 б.

4. Клековкин Г.А. Преемственность в обучении. в поисках теоретических оснований // – Самара, 2000. – С. 328.
5. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70.
6. Солдатова Г.Т. Дидактическое обеспечение преемственности математической подготовки студентов в системе «колледж-вуз» // – М., РГБ, 2003. diss.rsl.ru.
7. Торопова Е.А. Современные проблемы науки и образования. Современные проблемы науки и образования // Электронный научный журнал. – Тошкент, 2012. – № 6. – С.45-58.
8. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
9. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
10. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
11. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.